

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA BIOKIMYOVIY VA KIMYOVIY DESTRUKSIYANI IFODALOVCHI FE’LLAR GURUHI

Zamira Amonova

O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi

mira555.05.05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biokimyoviy va kimyoviy destruksiyani ifodalovchi fe’llar guruhi nemis va o‘zbek tillari misolida semantik jihatdan tahlil qilinadi. Har bir guruh uchun nemis va o‘zbek tillaridagi mos fe’llar ularning ma’nosi va kontekstual qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ikki til doirasida biokimyoviy va kimyoviy destruksiya bilan bog‘liq fe’llarning umumiy va o‘ziga xos semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: destruksiya fe’llari, biokimyoviy destruksiya, kimyoviy destruksiya, semantik maydon, leksik-semantik guruh, qiyosiy semantika.

Annotation: The article presents a semantic analysis of a group of verbs denoting biochemical and chemical destruction based on the German and Uzbek languages. For each subgroup, the corresponding verbs in German and Uzbek are examined in terms of their meaning and contextual usage. The study analyzes both the general and specific semantic features of verbs related to biochemical and chemical destruction within the comparative framework of the two languages.

Key words: verbs of destruction, biochemical destruction, chemical destruction, semantic field, lexico-semantic group, comparative semantics.

Аннотация: В данной статье проводится семантический анализ группы глаголов, обозначающих биохимическую и химическую деструкцию, на примере немецкого и узбекского языков. Для каждой подгруппы рассматриваются соответствующие глаголы в немецком и узбекском языках с точки зрения их значения и контекстуального употребления. Анализируются общие и специфические семантические особенности глаголов, связанных с биохимической и химической деструкцией, в сопоставительном аспекте двух языков.

Ключевые слова: глаголы деструкции, биохимическая деструкция, химическая деструкция, семантическое поле, лексико-семантическая группа, сравнительная семантика.

Tilshunoslikda so‘z ma’nosi bilan bog‘liq qarashlarni tahlil qilish va tilning keyingi taraqqiyot bosqichi uchun tegishli ilmiy xulosalarni chiqarish bilan bog‘liq masalalar har bir davr uchun dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Asrlar mobaynida aloqa vositasi sifatida xizmat qilib kelayotgan til birliklarining mazmun jihatini tushunish, semantik tarkibini aniqlash, boshqa semalar bilan paradigmatic va

sintagmatik munosabatlarga kirishish qonuniyatlarni o'rganish hozirgi kunda ham tilshunoslikning muhim masalalari qatoriga kiradi. Jahon tilshunosligida V.Gak, S.Kasnelson, Tenyer, Yu.Apresyan, L.Vasilyev, T.Shippan tadqiqotlaridagi so'zlarning ma'no qurilishi, xususan fe'llar semantikasi bilan bog'liq nazariy konsepsiyalar hozirgi avlod ilmiy izlanishlari tayanch manba bo'lib kelayotgani shubhasiz. Jumladan, fe'llarning semantik tizimini tahlilga tortishni bosqichma-bosqich amalga oshirishda L.Vasilyevning fe'l leksemalarini uch tamoyil asosida (denotativ, paradigmatic, sintagmatik) tasnifiga murojaat qilinishini zamonaviy tilshunoslikda tez-tez uchratish mumkin [1,39].

Ma'no komponentlariga boy leksik qatlamni tizimli ravishda o'rganish maqsadida XIX asrning birinchi yarmida nemis tilshunosi Y.Trir tomonidan yaratilgan "semantik maydonlar nazariyasi"ning dunyo tilshunosligida keng yoyilishi bugungi kunga qadar so'zlarni semantik guruhlashtirish an'anasining davom etib kelishiga zamin yaratdi. Ushbu tajriba ham qardosh ham qardosh bo'lmagan til oilalari chog'ishtirma va qiyosiy tadqiqida keng foydalaniladi. Trir nazariyasiga ko'ra, tushunchaviy maydonlar til doirasida mos keluvchi leksik maydonlarga ega, ammo bu leksik birliklar mustaqil mavjud emas, balki lug'at tarkibida aniqlanadi. Xuddi magnit o'z atrofida magnit maydonini yaratganidek, tushunchalar ham o'z ifoda doirasiga kiruvchi so'zlar qatorini qamrab olib, o'ziga xos semantik maydonlarni hosil qiladi. Bu maydonlardan tashqarida so'zlar — mazmunsiz belgilarga aylanadi. Tilning alohida birligi sifatida so'z o'zining aniq mazmunidan mahrum bo'ladi. Semantik maydonga xos holat shuki, unga kiruvchi so'zlarning ma'nolari o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir orqali bir-biriga bo'ysunadi va to'ldiriladi [2,109]. V. Porzig, L.Weisgerber, G.Ipsen, G. Møller, A.A. Ufimseva, E.V. Kuznetsova kabi tilshunolar semantik maydonlarni tushunchaviy emas, balki lingvistik asosda ajratishni afzal ko'rishdi. Ularning talqinicha, semantik maydon - bu ma'lum tarixiy davrda leksik ma'nolar asosida bog'langan so'zlar yig'indisidir. Bu so'zlar sintagmatik yoki paradigmatic aloqalar orqali bir-biriga ulanadi. Masalan, V.Porsig semantik maydonni sintagmatik jihatdan aniqlab, uni fe'l bilan unga bog'langan otlar - subyekt, vosita yoki obyekt o'rtasidagi bog'lanish orqali tushuntiradi. U leksik-sintaktik birliklarni tahlil qilishni o'z nazariyasining asosiy vazifasi deb biladi [3,72-73].

Bugungi kunga kelib, tillar leksik qatlamining tizimli tuzilishga ega ekanligi isbotlangan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, leksik tizim bu oddiy so'zlar jamlanmasi emas, balki turli hajm va xususiyatdagi, o'zaro bog'langan hamda kesishuvchi so'zlar guruhlaridan tashkil topgan murakkab tuzilma hisoblanadi [Kuznetsova 4,24]. A.Ufimseva semasiologiyani yangi rivojlanayotgan sohasi uchun semantik bog'liqliklarning tizimlilikini nafaqat tasavvurlar doirasi, balki tilning boshqa aspektlari bilan o'zaro aloqasi orqali tahlil qilgan [5,30-36].

Semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar rivojlanib borgani sari, leksikografik adabiyotlardagi soʻzlar, xususan, feʼl sememalarini differensial-semantik metod yordamida tasniflash keng tus oldi. Bunda har biri iyerarxik tartib hamda semantik maydonda oʻz funksiyasiga ega arxisema, integral (umumiy, mushtarak, birlashtiruvchi) sema, differensial (farqlovchi) sema kabi tushunchalarga asosiy eʼtiborni qaratila boshlandi. Jumladan, oʻzbek tilshunosligida u yoki bu semantik maydon feʼllarining “umumiylik-xususiylik” tamoyili asosida katta va kichik leksik-semantik guruhlariga ajratib oʻrganishda I.Qoʻchqortoyev [6,160], R.Rasulov [7,134], Oʻ.Sharipova [8,65], S.Muhamedovalarning [9,114] ilmiy izlanishlaridagi nazariy xulosalar diqqatni oʻziga tortadi. M.Mirtojiyevga koʻra, “bir semantik maydonga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy boʻlgan va ularni birlashtiruvchi sema arxisema; semantik maydonning guruhleri (maydonchalari) ga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy boʻlgan va ularni birlashtiruvchi sema integral semadir. Differensial sema semantik maydonga kirgan har bir leksema sememasining oʻziga xos tomonini, xususiyatini belgilaydi [10,58]”. Shunga koʻra, tadqiqotimiz obyekti boʻlgan destruksiyani ifodalovchi feʼllar (DIF) tahlilida komponent va differensial-semantik tahlil usuli qoʻllanildi. Oʻz xususiyatiga koʻra DIFning katta qismi ham nemis ham oʻzbek tilida koʻp maʼnoli boʻlganligi sababli, ularni semantik guruhlariga tasniflash va guruh leksemalari orasidagi chegara qaysi tamoyillarga asosan ajratilganligini aniqlash ancha mushkul, chunki ayrim feʼllar bir vaqtning oʻzida bir qacha semantik guruhlariga tegishli boʻlishi mumkin. Bular tarkibidan biokimyoviy hamda kimyoviy destruksiyani ifodalovchi feʼllar leksik-semantik guruhi oʻrin olgan. Mazkur guruh feʼllarining semantik tarkibida biologik va kimyoviy taʼsir semasi mavjud boʻlib, ular ifodalagan harakat obyektga shunday taʼsir natijasida parchalanishini, vayron boʻlishini bildiradi.

Biokimyoviy destruksiyani ifodalovchi feʼllar, avvalo, organik va noorganik moddalar destruksiyasini qamrab oladi. Biologik muhitda, odatda past haroratda tirik organizmlar, koʻpincha mikroorganizmlar - bakteriyalar, mikroblar, zamburugʻlar ishtirokida, xususan, ulardan ajraladigan fermentlar hisobiga moddalarning parchalanish jarayoni biokimyoviy destruksiyani keltirib chiqaradi [11,167-183]. Biokimyoviy bu biologik yoki kimyoviy omillar taʼsirida murakkab organik moddalarning oddiy komponentlarga parchalanish (buzilish, mogʻorlash, sasish, chirish, achish yemirilish va sh.k.) jarayonidir. Shunga muvofiq, biokimyoviy destruksiyani ifodalovchi feʼllarning yadrosida obyekt mikrostrukturasini buzish, hayotiy faoliyatdan toʻxtatish, (odatda ichki tomondan) zarar yetkazish orqali uning sifati, rangi, hajmi va shakliga futur yetishi kabi maʼno anglashiladi. Biokimyoviy destruksiyani ifodalovchi feʼllarning katta qismini nemis tilida oʻtimsiz va oʻzlik feʼllari (reflexive Verben), oʻzbek tilida oʻtimsiz hamda majhul nisbatda ifodalangan feʼllar tashkil qilishi aniqlandi. Quyida ushbu feʼllarning ayrimlarini tahlilga tortamiz: *abbauen* – parchalamoq, tarkibiy qismlarga ajratmoq, chiritmoq 2. *sich a.* – chirimoq,

aynimoq, irimoq; *abfaulen* – irimoq, sasib ketmoq, chirib to‘kilmoq *die Blötter faulen ab* ‘barglar sarg‘ayib to‘kiladi’; *abhungern* – (yemay-ichmay) ozmoq; *in einer Woche hat sie drei kilo abgehungert* ‘U bir haftada uch kilogramm ozdi’; *abmagern* – ozg‘inlashmoq, oriqlamoq; *abnehmen* – ozmoq; *Ich habe schon zwei Kilo abgenommen* ‘Men ikki kilogramm ozdim’; *abspecken* – ozmoq; *zwei Kilo a.* ‘ikki kilogramm ozmoq’; *altern* – qarimoq; *Er ist in den letzten Jahren stark gealtert* ‘U so‘nggi yillarda ancha qarib qoldi’; *anfaulen* – chirib boshlamoq, chirib bormoq; *anschwellen* – shishib ketmoq, g‘urra bo‘lmoq; *die Beine schwellen an* ‘oyoqlar shishib ketmoqda’; *aufquellen* – ko‘pchimoq, ivimoq; *der Teig quillt auf* ‘xamir ko‘pchiydi (oshadi)’; *auszehren* – ozdirib-to‘zdirib yubormoq; *beschlagen* – mog‘orlab ketmoq, mog‘or bosmoq; *bleichen* – oqarmoq, rangi o‘chmoq; *die Haare bleichen* ‘soch oqaradi’; *degenerieren* – 1.parchalanib ketmoq *die Zellen degenerieren* ‘to‘qimalar parchalanadi’ 2.aynimoq, buzilmoq; *durchfaulen* – chirib ketmoq, irib ketmoq; *einschrumpeln/einschrumpfen* – so‘lmoq, qurimoq, so‘lib (qurib) qolmoq; *eitern* – yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq; *die Wunde eitert* ‘yara yiringlaydi’; *entzünden* – biror a‘zo yallig‘lanadi, qizaradi; *e-e Wunde entzündet sich* ‘yara yallig‘lanadi’; *erbleichen* – oqarmoq, bo‘zarmoq, gezarmoq; *erblinden* – ko‘r bo‘lib qolmoq; *nach einem Unfall erblinden* ‘baxtsiz hodisadan keyin ko‘r bo‘lib qolmoq’; *faulen* – chirimoq, irimoq, aynimoq (meva, sabzavot va tishlar haqida); *gammeln* – aynimoq, buzilmoq (oziq ovqat mahsulotlari); *giften* – buzmoq, zaharlamoq; *paralysieren* – falajlamoq, shol qilmoq; *schwören* – yiringlamoq; *schwellen* – shishmoq, shishib ketmoq, kerkmoq; *Sein Arm ist geschwollen, weil ihn e-e Biene gestochen hat* ‘Ari chaqib, uning qo‘li shishib ketdi’; *verblößen* – so‘lmoq, guldan tushmoq; *Die Rosen verblößen schon* ‘atirgullar so‘lmoqda’; *verderben* – buzilmoq, aynimoq, buzilib (aynib) qolmoq; *Die Milch verdirbt, wenn sie nicht gekühlt wird* ‘Agar sut sovitilmasa, ayniydi’; *verfaulen* – chirimoq, irimoq, chirib (irib) ketmoq; *vergammeln* – irimoq, aynimoq, iste‘molga yaroqsiz bo‘lib; *vergären* – achitmoq, ko‘pchitmoq, oshirmoq; *vergiften* – zaharlamoq, zahar berib o‘ldirmoq; *verkommen* – buzilmoq, iste‘molga yaroqsiz bo‘lmoq; *verkümmern* – so‘lmoq, so‘lib qolmoq; *vermodern* – chirimoq, chirib parchalanmoq; *Der Leichnam vermodert* ‘murda chirimoqda’; *vermorschen* – chirimoq, chirib maydalanib ketmoq; *verrotten* – chirindiga aylanmoq (o‘simlik, go‘ng haqida); *Laub verrottet* ‘barg chirindiga aylanadi’; *verschimmeln* – mog‘or (po‘panak) bosmoq, mog‘orlamoq; *verseuchen* – (kimyoviy/zararli moddalar bilan) zaharlamoq; *verwelken* so‘lib – qolmoq; *verwesen* – chirimoq, irib ketmoq; *welken* – so‘lmoq, so‘lib qolmoq, aynimoq;

Kimyoviy destruksiya fe’llari biokimyoviy destruksiyani ifodalovchi fe’llardan birmuncha farqlanadi. Ushbu guruhni organizmda yoki laboratoriya sharoitida kimyoviy moddalar – kislotalar, ishqorlar, oksidlovchilar, issiqlik, ultrabinafsha nurlanish vositasida parchalanish jarayonlarini ifodalovchi fe’llar qatori tashkil qiladi.

Kimyoviy destruksiya ta'sir etish va yemirilish mexanizmiga ko'ra bir nechta turga ajratiladi. Masalan, temir namlik va kislorod ta'sirida zanglaydi; plastik ultrabinafsha nurlari ta'sirida yemiriladi; yog'och baland haroratda yonadi; esterlar suv bilan reaksiyaga kirib spirt va kislotalarga parchalanadi.

Semantik talqinda kimyoviy destruksiya ta'sirga uchraydigan obyektlar – ya'ni pasiyenslar polimerlar, organik moddalar, uglevodorodlar - neft, gaz, yog'och, biomassa, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilar – plastmassa, metall, rezina, charm; biologik molekulalar – oqsil, yog'; agentlari – oksidlovchi moddalar (azot, kislorod, vodorod, harorat, namlik, yorug'lik, ultrabinafsha nurlar, natijasi - karbonad angidrid, zang, metan, gazlar, tuzlar sifatida namoyon bo'ladi: *anfressen* - zanglab ketmoq, zang bosmoq; *der Kost frisst das Eisen an* 'temirni zang bosadi'; *anrosten* – zanglab boshlamoq; *ausbleichen* – o'ngmoq, rangi o'chib ketmoq; *bleichen* – oqarmoq; *die Wasche bleicht in der Sonne* 'kir oftobda oqaradi'; *brennen* – 1. kuydirmoq, achishtirmoq; *Das Desinfektionsmittel brannte in der Wunde* 'Dezinfeksiya vositalari yarani achishtiradi'; 2. tayyorlamoq, pishirmoq *Shnaps b.* 'aroq tayyorlamoq'; *durchrosten* – (zanglab) chirib ketmoq (bitmoq); *einrosten* - zanglamoq, zang bosmoq; *einfressen* – kemirmoq, yemirmoq (zang, kislota), *erbleichen* – oqarmoq, rangi o'chmoq; *oxidieren* – 1. oksidlamoq; 2. oksidlanmoq; *rosten* – zanglamoq; *verätzen* – kuydirmoq (ishqor va sh. k. bilan); *vergilben* – sarg'aymoq; *ein Foto vergilbt* 'fotosurat sarg'ayadi'; *verrosten* – zang bosib ketmoq, zanglab ketmoq; *verschießen* – rangini (ravshanligini) yo'qotmoq, o'ngib (oqarib) ketmoq, rangi o'chmoq; *zerfressen* – yemoq, kemirmoq *Motten z. etw.* 'biror narsani zang bosadi (yemiradi), kuya biror narsani yeydi'.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek va nemis tillaridagi biokimyoviy va kimyoviy destruksiya fe'llari semantik maydon ichida o'zaro mutanosib va semantik nuqtai nazardan ayrim farqlanuvchi kichik guruhlariga ajratilishi mumkin. Kimyoviy destruksiyaning har xil turlari moddalar bilan bog'liq turli texnologik jarayonlar va sanoat amaliyotlari uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman, biokimyoviy va kimyoviy destruksiyani ifodalovchi fe'llar o'zlarining semantik yadrosida buzilish, yemirilish, parchalanish, mavjudlikning yo'qolishi, sifatsizlanish kabi umumiy ma'nolarni mujassam etadi. Har ikki tilda fe'llarning destruktiv harakatni ifodalashdagi asosiy semantik komponentlari - obyektga ta'sir, harakat natijasining darajasi (shikast, deformatsiya, bo'linish, parchalanish, yo'qolish) va vositaning ishtiroki (bakteriya, zamburug', kislota, zang va h.k.) bo'yicha aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Васильев Л.М. Семантика русского глагола: Учеб. пособие для слушателей фак. повышения квалификации. -М.: Высш. школа, 1981. -184 с.

2. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. -Москва «Наука», 1977. - 319 с.
3. Porzig W., Das Wunder der Sprache. Probleme, Methoden und Ergebnisse der modernen Sprachwissenschaft, 1. Ausgabe, Francke, Bern 1950, 414 S.
4. Кузнецова Э. В. Лексикология русского языка: Учеб. пособие для филол. фак. ун-тов.—2-е изд., испр. и доп.— М.: Высш. шк., 1989. - 216 с.
5. Уфимцева А.А. Теории “семантического поля” и возможности их применения при изучении словарного состава языка. Сб. “Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистике”. - М.: Изд-во АН СССР. - 1961. - С.254
6. Кучкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (узбек тилидаги нутк феъллари материали асосида), Монография. -Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1977. - 166 б.
7. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши 2-нашри. - Тошкент: Низомий номидаги Тошкент Давлат педагогика университети нашриёти, 2008. - 143 б.
8. Шарипова Ў. Юмуш феълларининг маъно валентликлари (У кув кулланма) ТОШКЕНТ - 2012. – 71 б.
9. Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Монография. - Тошкент: Ўзбекистон республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2013. - 122 б.
10. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 288
11. Sobirova R.A., Abrorov O.A., Inoyatova A.N., Aripov A.N. “Biologik kimyo”. “Yangi asr avlodi”, Toshkent-2006. 472 b.